



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



С/БЕРИЕНИКА



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамишнур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

**Small business and private
entrepreneurship**

**Малый бизнес и частное
предпринимательство**



ANDJON VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN DASTURLAR VA INSTITUTLAR FAOLIYATINING TAHLILI

Xusanova Zulfiya Rahmatullaevna

АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОГРАММ И ИНСТИТУТОВ, РЕАЛИЗУЕМЫХ ПО РАЗВИТИЮ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Хусанова Зулфия Рахматуллаевна

ANALYSIS OF PROGRAMMES AND INSTITUTIONS IMPLEMENTED FOR THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN ANDIJAN REGION

Khusanova Zulfiya Rahmatullayevna

Received: May 3, 2026 Revised: May 12, 2026 Accepted: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va institutlar faoliyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda Andijon viloyati statistika boshqarmasining asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, o'sish sur'atlari va moliyalashtirish manbalari tarkibi bo'yicha rasmiy ma'lumotlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari asos sifatida olingan. Tadqiqot natijalari dasturlar qamrovini kengaytirish, moliyalashtirish manbalari tarkibini optimallashtirish va hududlar kesimida monitoring tizimini joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, dasturlar tahlili, institutlar faoliyati, Andijon viloyati, asosiy kapital investitsiyalari, moliyalashtirish manbalari, davlat siyosati, kichik biznes.

Аннотация. В данной статье научно проанализирована деятельность государственных программ и институтов, направленных на развитие женского предпринимательства в Андижанской области. В качестве информационной базы использованы официальные данные Управления статистики Андижанской области об объемах освоенных инвестиций в основной капитал, темпах роста и структуре источников финансирования, а также соответствующие указы и постановления Президента Республики Узбекистан. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости расширения охвата программ, оптимизации структуры источников финансирования и внедрения системы мониторинга в разрезе районов.

Ключевые слова: женское предпринимательство, анализ программ, деятельность институтов, Андижанская область, инвестиции в основной капитал, источники финансирования, государственная политика, малый бизнес.

Annotation. This article provides a scientific analysis of the activities of state programmes and institutions aimed at developing women's entrepreneurship in Andijan region. The study is based on official data from the Statistical Department of Andijan Region on the volume of investments in fixed capital, growth rates and the structure of financing sources, as well as relevant decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan. The research findings indicate the need to expand programme coverage, optimise the structure of financing sources and introduce a district-level monitoring system.

Keywords: women's entrepreneurship, programme analysis, institutional activities, Andijan region, fixed capital investment, financing sources, state policy, small business.



KIRISH

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish muammosi zamonaviy iqtisodiyot fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda. Ayollar ishtirokidagi tadbirkorlik faoliyati nafaqat individual daromadni, balki mahalliy iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini, ish o'rinlari sonini va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu sababli ko'plab mamlakatlar ayollar tadbirkorligini rag'batlantirishni milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilayapti. Ushbu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 28 yanvar 2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni [1] doirasida izchil davlat siyosatini amalga oshirmoqda.

Biroq davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi faqat qonunchilik me'yorlari va moliyaviy resurslar bilan cheklanmaydi. Asosiy savol — ushbu siyosatni bevosita amalga oshirayotgan dasturlar va institutlarning hududiy darajada qanchalik samarali ishlashidadir. Andijon viloyati bu jihatdan alohida tadqiqot ob'ekti sifatida ahamiyatga ega. Viloyat O'zbekistonning eng zich aholi va sanoat jihatdan rivojlangan hududlaridan biri bo'lib, 2024-yil holatiga aholi soni 3 milliondan ziyod kishini tashkil etadi. Andijon viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 9 622,6 mlrd so'mdan 2024-yilda 28 667,9 mlrd so'mga yetgan, ya'ni to'rt yil ichida uch barobarga oshgan. Shu bilan birga, viloyatda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni atigi 2 011 tani tashkil etib, iqtisodiy salohiyat bilan ayollar tadbirkorligi darajasi o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Moliyalashtirish manbalari tarkibiga ko'z tashlasak, 2024-yilda investitsiyalarning 83,7 foizi jalb qilingan mablag'lar, shundan 77,9 foizi chet el investitsiyalari hisobiga o'zlashtirilgan, bank kreditlarining ulushi esa atiga 1,2 foizni tashkil etgan [2]. Bu holat dasturlar samaradorligini tahlil qilish zarurligini yanada tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va institutlar faoliyatini faqat rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish, ularning hududiy xususiyatlarini aniqlash va takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida gender tengligini ta'minlash, bandlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida keng tadqiq qilinmoqda. Xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon banki, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlarida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va mahalliy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida baholanadi [9].

Jahon bankining "Gender Equality Analysis in Uzbekistan 2024" nomli tadqiqotida O'zbekistonda gender tengligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, ayollarning iqtisodiy faolligi va tadbirkorlikdagi ishtiroki erkaklarga nisbatan pastroq

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

darajada ekanligi qayd etilgan [9]. Tadqiqotda kredit resurslariga kirish imkoniyatining cheklanganligi, garov ta'minoti muammolari va moliyaviy infratuzilmaning yetarlicha moslashmaganligi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishdagi asosiy to'siqlar sifatida ko'rsatilgan.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari keng yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni asosida ishlab chiqilgan ilmiy ishlarda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikka keng jalb etish "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida talqin qilinadi [1]. Ushbu Farmon doirasida ayollarni kasb-hunarga o'qitish, imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash va hududiy dasturlar orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantirilgan.

Andijon viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan "yo'l xaritalari" doirasida ham ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan [7]. Ushbu qarorda oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Ilmiy ishlarda qayd etilishicha, hududiy dasturlarning samaradorligi ko'p jihatdan moliyaviy resurslarning taqsimlanishi va institutlarning hududiy xususiyatlarga moslashuviga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan tahlillarda tadbirkor ayollarning hududlar kesimidagi faolligi yoritilgan bo'lib, unda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalarning soni va ularning iqtisodiy ulushi tahlil qilingan [8]. Ushbu ma'lumotlar Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligi salohiyati yuqori ekanligini, biroq uning mavjud iqtisodiy imkoniyatlarga nisbatan yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Andijon viloyati statistika boshqarmasining investitsiyalar hajmi va moliyalashtirish manbalari bo'yicha rasmiy ma'lumotlari hududda investitsion muhitda sezilarli o'sish kuzatilayotganini tasdiqlaydi [2;3;5]. Xususan, 2020–2025-yillar davomida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning keskin oshishi viloyat iqtisodiyotining faol rivojlanayotganini ko'rsatadi. Biroq ilmiy tahlillarda investitsiyalar hajmining oshishi har doim ham ayollar tadbirkorligi rivojlanishiga bevosita ta'sir etmasligi, asosiy muammo investitsiyalarning qaysi manbalar hisobiga shakllanayotganligida ekanligi ta'kidlanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznesni rivojlantirishda bank kreditlari va davlat subsidiyalari eng muhim moliyaviy mexanizm sifatida baholanadi. Shu nuqtai nazardan, Andijon viloyatida bank kreditlari ulushining 2021-yildagi 6,8 foizdan 2025-yilda 1,2 foizga tushib ketishi ilmiy jihatdan jiddiy muammo sifatida qaralmoqda [5]. Bu holat ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlarining moliyaviy mexanizmlari yetarli darajada samarali ishlamayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda industrial zonalar va kichik sanoat hududlarining ayollar tadbirkorligini rivojlantirishdagi o'rni alohida qayd etilgan. Paxtaobod va Oltinko'l tumanlaridagi

Qarshi davlat texnika universiteti



to'qimachilik va kichik sanoat zonalarini ayollar eng faol ishlaydigan sohalar hisoblanadi. Biroq ushbu hududlarda ayollar tomonidan tashkil etilgan korxonalarning ulushi bo'yicha alohida statistik ma'lumotlarning yetarli emasligi mavjud tizimning zaif jihatlaridan biri sifatida ko'rsatiladi [6].

Yuqoridagi ilmiy manbalar va rasmiy statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda, jumladan Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng qamrovli dasturlar va institutlar tizimi shakllangan. Biroq ushbu tizimning hududiy samaradorligi, investitsiyalarning ayollar tadbirkorligiga qanchalik ta'sir qilayotgani va dasturlarning haqiqiy iqtisodiy natijalari ilmiy jihatdan yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shu sababli Andijon viloyati misolida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha dasturlar va institutlar faoliyatini kompleks tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida hujjatli tahlil, statistik tahlil, qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Andijon

viloyati statistika boshqarmasining 2020–2025-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Hududlar kesimida investitsiyalar hajmi, o'sish sur'atlari va moliyalashtirish manbalari o'zaro qiyosiy tahlil asosida baholandi. Shuningdek, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar samaradorligi tizimli yondashuv asosida o'rganilib, mavjud muammolar va ularni takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslandi.

Muhokama va natijalar. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturlarining samarali ishlashi uchun qulay investitsiya muhiti zarur asos hisoblanadi. Bu nuqtai nazardan Andijon viloyatida so'nggi yillarda yuz bergan o'zgarishlar alohida ahamiyatga ega. Andijon viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2025-yillar davomida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar barqaror o'sish tendensiyasini namoyish etmoqda. Quyidagi jadvalda viloyat tumanlari kesimida ushbu ko'rsatkichlarning to'liq dinamikasi aks ettirilgan.

1-jadval.

Andijon viloyati tumanlarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (mlrd so'm, joriy narxlarda)[3]

Hudud	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (yan-dek)*
Andijon viloyati (jami)	9 622,6	11 176,6	14 339,8	18 639,1	28 667,9	32 909,9
Andijon shahri	2 448,2	2 541,6	3 017,2	3 475,1	3 440,0	4 994,7
Xonobod shahri	164,0	175,2	310,9	196,0	780,1	869,4
Andijon tumani	528,2	660,2	844,2	1 035,1	3 755,8	5 440,0
Oltinko'l tumani	1 361,6	604,2	1 111,6	676,7	1 422,8	2 400,9
Asaka tumani	987,2	2 539,7	1 958,9	1 087,6	4 221,0	1 592,1
Buloqboshi tumani	345,0	340,3	1 685,7	6 470,2	4 882,1	2 836,8
Paxtaobod tumani	390,5	346,1	484,5	550,0	1 015,3	1 648,5
Shahrixon tumani	252,1	324,9	646,8	762,3	880,8	1 598,8
Xo'jaobod tumani	1 051,1	1 186,7	1 440,2	900,0	1 071,0	2 802,2
Marhamat tumani	311,2	388,3	469,4	527,4	1 387,6	1 534,0
Jalalquduq tumani	402,8	322,0	486,9	653,9	895,0	1 571,9
Baliqchi tumani	209,3	510,4	546,7	707,3	1 399,0	1 442,7
Qo'rg'ontepa tumani	581,9	586,2	560,5	785,8	1 011,9	1 168,3
Izboskan tumani	276,1	292,1	314,0	347,6	841,7	911,4
Ulug'nor tumani	141,2	146,1	232,6	269,6	777,2	948,9
Bo'ston tumani	172,2	212,6	229,8	194,5	886,7	1 149,3

*2025-yil yanvar–dekabr, dastlabki ma'lumotlar.



1-jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmi 2020–2024-yillar davomida 9 622,6 mlrd so'mdan 28 667,9 mlrd so'mga, ya'ni 3 barobarga oshgan. 2025-yilda esa bu ko'rsatkich yanada oshib, 32 909,9 mlrd so'mga yetgan. Ayollar tadbirkorligi uchun muhim bo'lgan to'qimachilik va ishlab chiqarish sohalari rivojlangan Paxtaobod tumani 2024-yilda 1 015,3 mlrd so'm investitsiya hajmiga

erishgan bo'lsa, Oltinko'l tumani 1 422,8 mlrd so'mni tashkil etmoqda.

Mutlaq hajmlar bilan birga, o'sish sur'atlari dinamikasi hududlardagi iqtisodiy jarayonlarning tezligini ko'rsatadi. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturlari eng ko'p samarali bo'lishi mumkin bo'lgan hududlarni aniqlash uchun ushbu ko'rsatkich alohida ahamiyatga ega.

2-jadval.

Andijon viloyati tumanlarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar o'sish sur'ati (% , oldingi yilga nisbatan) [4]

Hudud/yillar	2021	2022	2023	2024	2025*
Andijon viloyati (jami)	106,0	116,5	121,2	139,4	109,9
Andijon shahri	94,8	107,6	107,5	89,8	138,8
Xonobod shahri	97,6	160,5	58,8	360,8 ↑	106,8
Andijon tumani	114,1	116,2	114,3	329,0 ↑	139,0
Oltinko'l tumani	40,5	167,1	56,6	190,7 ↑	161,9
Asaka tumani	x	69,9	51,6	351,9 ↑	36,0
Buloqboshi tumani	90,1	x	x	68,4	55,5
Paxtaobod tumani	81,0	128,6	105,1	167,5 ↑	155,6
Shahrixon tumani	117,7	181,3	109,7	104,7	172,8
Marhamat tumani	114,0	110,8	104,1	238,5 ↑	105,9
Jalalquduq tumani	73,0	138,6	124,7	124,1	168,3
Baliqchi tumani	x	97,5	120,4	179,3 ↑	98,8
Ulug'nor tumani	94,5	145,2	107,7	261,3 ↑	117,1
Bo'ston tumani	112,7	98,5	78,3	413,3 ↑	124,3
Izboskan tumani	96,6	98,4	102,7	219,4 ↑	103,6

*2025-yil yanvar–dekabr, dastlabki ma'lumotlar. ↑ — yuqori o'sish ko'rsatkichlari

2-jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2024-yilda investitsiyalar o'sish sur'ati viloyat bo'yicha 139,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, alohida tumanlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori xususan, Bo'ston tumanida 413,3%, Asaka tumanida 351,9%, Xonobod shahrida 360,8%, Andijon tumanida 329,0%. Ayollar tadbirkorligi bilan bevosita bog'liq to'qimachilik sohasida faol Oltinko'l tumanida

190,7%, Paxtaobod tumanida esa 167,5% o'sish qayd etilgan.

Investitsiya hajmlarining o'sishi o'z-o'zicha yetarli emas — ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun moliyalashtirishning tarkibi va manbalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, bank kreditlari va davlat subsidiyalarining ulushi bevosita ayollar tadbirkorligining moliyaviy imkoniyatlarini belgilaydi.

3-jadval.

Andijon viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar moliyalashtirish manbalari tarkibi (jami foizda) [5]

Moliyalashtirish manbai	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Korxonalar va aholining o'z mablag'lari	37,4	47,6	16,5	16,3	16,5
Jalb qilingan mablag'lar (jami)	62,6	52,4	83,5	83,7	83,5
— davlat byudjeti	8,3	6,3	3,4	4,0	3,4
— bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	6,8	8,8	1,2	1,2	1,2
— chet el investitsiyalari va kreditlari	45,6	36,3	77,7	77,9	77,7

3-jadval tahlili jiddiy tendensiyaning ko'rsatmoqda, ya'ni 2021–2025-yillar davomida chet el

investitsiyalarining ulushi 45,6 foizdan 77,7 foizga ko'tarilgan, bank kreditlarining ulushi esa 6,8 foizdan 1,2



foizga tushgan. Bu holat ayollar tadbirkorligi uchun eng muhim moliyalashtirish manbai bo'lgan bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatining yildan-yilga torayib borayotganini ko'rsatadi.

Tumanlar kesimida moliyalashtirish manbalari tarkibi ham sezilarli farqlanishni namoyon etadi.

Oltinko'1 tumanida bank kreditlarining ulushi 5,6 foizni tashkil etib, viloyat o'rtachasidan (1,2%) yuqori bo'lib, ushbu tuman namuna sifatida o'rganilishi zarurligini ko'rsatadi.

4-jadval.

Andijon viloyatining ayrim tumanlarida investitsiyalar moliyalashtirish manbalari (% , 2025-yil yanvar-dekabr)[6]

Shahar va tumanlar	O'z mablag'lari	Davlat byudjeti	Bank kreditlari	Chet el investitsiyalari
Andijon viloyati (o'rt)	16,5	3,4	1,2	77,7
Andijon shahri	28,9	6,9	2,1	56,7
Oltinko'1 tumani	22,8	3,3	5,6	68,0
Asaka tumani	34,6	5,2	0,2	57,5
Paxtaobod tumani	21,0	0,6	1,3	77,0
Shahrixon tumani	15,5	2,5	0,6	80,1
Xonobod shahri	8,7	1,6	0,3	89,2 ↑

* viloyat o'rtachasidan yuqori bank krediti ulushi.

Investitsiya muhitining tahlilidan so'ng bevosita ayollar tadbirkorligiga qaratilgan dasturlar va institutlarning hududiy ko'rsatkichlari o'rganildi.

5-jadval.

Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturlari va institutlarining asosiy ko'rsatkichlari[7,8]

Dastur / Institut	Qamrov / Natija	Moliyaviy hajm	Huquqiy asos
«Ayollar daftari» tizimi	91 000 nafar+ ko'mak oldi	—	SQ-876-IV, 2024
Oilaviy tadbirkorlik dasturi	47 600+ loyiha moliyalashtirildi	876,4 mlrd so'm	SQ-876-IV, 2024
«Hamroh» dasturi	3 000 loyiha qo'llab-quvvatlandi	1 trln so'm	PF-60, 2022
Hududiy bandlik dasturi	532 000 kishining bandligi	—	SQ-876-IV, 2024
Tadbirkor ayollar korxonalari	2 011 ta faoliyat ko'rsatmoqda	—	stat.uz, 2024
To'qimachilik ind. zonasi (Paxtaobod)	Investitsiya: 1 015,3 mlrd so'm	+167,5% o'sish	Andijon stat.
Kichik sanoat zonasi (Oltinko'1)	Investitsiya: 1 422,8 mlrd so'm	+190,7% o'sish	Andijon stat.
Yangi tashkil etilgan korxonalar (2025 yil)	4294 ta yangi korxona	—	Andijon stat.

5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, dasturlarning qamrovi keng va moliyaviy hajmi ulkan. Biroq 91 000 nafar xotin-qizni qamrab olgan «Ayollar daftari» tizimiga nisbatan haqiqiy tadbirkorlik faoliyatiga o'tganlar soni (2 011 ta korxona) o'rtasidagi katta tafovut — taxminan 2,2 foizlik konversiya ko'rsatkichi — dasturlar samaradorligi masalasini ilmiy tahlil qilishni talab etadi.

Tadqiqot natijasidan ko'rinib turibdiki, Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha dasturlar va institutlar tizimi davlat siyosati darajasida yaxshi shakllantirilgan va moliyaviy jihatdan ta'minlangan. 2024-yilda investitsiyalar hajmining 139,4 foizga o'sishi va bir qator dasturlarga ajratilgan 876,4 mlrd so'm hamda 1 trln so'mlik mablag'lar buning yaqqol dalilidir. Biroq ushbu kuchli moliyaviy zamin ayollar tadbirkorligiga avtomatik tarzda aylanmayapti —



va bu hol quyidagi besh asosiy nomuvofiqlikni yuzaga keltirmoqda. Xususan, fikrimizcha bu nomuvofiqliklar quyidagilardan iborat:

Investitsiyalar o'sishi bilan bank kreditlari ulushi o'rtasidagi teskari nisbat. Investitsiyalar hajmi 2020-yildan 2024-yilgacha 3 barobarga oshgan, bank kreditlarining ulushi esa 6,8 foizdan 1,2 foizga tushgan. Jahon banki (2024)[9] ma'lumotlariga ko'ra, erkaklar biznes krediti olish imkoniyatidan ayollarnikiga nisbatan ikki baravar ko'p foydalanmoqda. Yagona istisno — Oltinko'l tumani bo'lib, u yerda bank kreditlarining ulushi 5,6 foizni tashkil etib, sanoat zonasi asosida kredit olish imkoniyati nisbatan kengayganligini ko'rsatmoqda.

Dasturlar qamrovi bilan haqiqiy natijalar o'rtasidagi tafovut. «Ayollar daftari» tizimi 91 000 nafar xotin-qizni qamrab olgan, ammo faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkor ayollar rahbarligidagi korxonalar soni 2 011 tani tashkil etmoqda. Nisbatan hisoblaganda, ro'yxatdagi xotin-qizlarning atiga 2,2 foizi haqiqiy tadbirkorlik sub'ektiga aylangan. Bunday past konversiya ko'rsatkichi dasturlar qamrovini kengaytirish bilan chuqur natija berish o'rtasida balans topilmayotganidan dalolat beradi.

Industrial zonalar va ayollar tadbirkorligi o'rtasidagi sustlashgan aloqa. Paxtaobod tumanidagi to'qimachilik industrial zonasida investitsiyalar 167,5 foizga, Oltinko'l tumanidagi kichik sanoat zonasida esa 190,7 foizga o'sgan. Ushbu zonalar ayollar faol ishtirok etadigan sohalarida joylashgan bo'lsa-da, ayollar tomonidan tashkil etilgan korxonalarning nisbati hududiy statistikada alohida ko'rsatilmayapti. Bu ko'rinmas bog'liqlik industrial zonalar salohiyatini ayollar tadbirkorligiga to'liq uzatishga imkon bermayapti.

Moliyalashtirish manbalari tarkibining hududlar bo'yicha farqlanishi va dasturlar muvofiqligining yetishmasligi. Xonobod shahrida chet el investitsiyalari ulushi 89,2 foizga yetgan, Andijon shahrida esa 56,7 foizni tashkil etmoqda. Har bir tuman o'ziga xos moliyalashtirish tarkibiga ega bo'lsa-da, «Hamroh» yoki oilaviy tadbirkorlik dasturlari tumanlarning moliyaviy xususiyatlarini hisobga olmagan holda yagona formatda amalga oshirilayapti.

2025-yilgi o'sish sur'atining sekinlashuvi va dasturlar barqarorligi masalasi. 2024-yilda bir qator tumanlar rekord ko'rsatkichlarga erishgan — Bo'ston 413,3%, Asaka 351,9%, biroq 2025-yilda ushbu tumanlar keskin pasayish ko'rsatmoqda. Asaka 36,0%, Buloqboshi 55,5%. Bu holat investitsiya o'sishining ayrim hollarda bir martalik omillar bilan bog'liq ekanligini va dasturlar barqaror, uzoq muddatli ta'sirga yo'naltirilishi zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan dasturlar va institutlar faoliyatini takomillashtirish uchun investitsiya o'sishi samarasini bank kreditlari va davlat subsidiyalari shaklida ayollarga to'g'ridan to'g'ri uzatuvchi mexanizmlarni kuchaytirish, dasturlarni hududiy xususiyatlarga moslashtirilgan holda amalga oshirish va samaradorlikni o'lchash tizimini joriy etish talab etiladi. Viloyatdagi barqaror investitsion o'sish va mavjud moliyaviy dasturlar buning uchun yetarlicha mustahkam iqtisodiy zamin yaratmoqda.

Yuqoridagi besh nomuvofiqlikdan kelib chiqib, quyidagilar tavsiya etildi:

Oltinko'l tumani tajribasini (bank kreditlari ulushi 5,6%) namuna sifatida boshqa tumanlarga joriy etish: viloyat miqyosida ayol tadbirkorlar uchun kafillik fondi tashkil etish va garov talablarini yumshatish.

«Ayollar daftari» tizimidagi 91 000 nafar xotin-qizning tadbirkorlikka o'tish dinamikasini tumanlar kesimida kuzatuvchi maxsus monitoring ko'rsatkichlarini joriy etish.

Paxtaobod (167,5% o'sish) va Oltinko'l (190,7% o'sish) tumanlaridagi industrial zonalarida ayollar uchun imtiyozli yer uchastkasi va arzon ijara shartlarini qonuniy mustahkamlash.

«Hamroh» va oilaviy tadbirkorlik dasturlarini tumanlarning moliyalashtirish manbalari tarkibiga moslashtirilgan holda amalga oshirish, chet el investitsiyalari ulushi yuqori tumanlarda ayollar uchun mahalliy moliyalashtirish kanallarini kengaytirish.

2025-yilda investitsiya o'sishining sekinlashishi kuzatilgan tumanlarda ayollar tadbirkorligini moliyalashtirishni barqarorlashtirish uchun ko'p yillik loyiha shartnomalarini qo'llash va investitsiya tsikllarini dasturlar bilan muvofiqlashtirish.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Xusanova Zulfiya Rahmatullayevna — Andijon davlat universiteti Menejment kafedrasida dotsenti, PhD / Хусанова Зулфия Рахматуллаевна — PhD, доцент кафедры «Менеджмент» Андижанского государственного университета / Khusanova Zulfiya Rahmatullayevna — PhD, Associate Professor of the Department of Management, Andijan State University
E-mail: xusanova12@gmail.com
ORCID: 0009-0008-9563-8520

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida» PF-60-son Farmoni. 28.01.2022. — lex.uz/docs/-5841077
2. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (joriy narxlarda, mlrd so'm, 2010–2026). — andstat.uz
3. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (joriy narxlarda, mlrd so'm, 2010–2026). — andstat.uz
4. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (joriy narxlarda, mlrd so'm, 2010–2026). — andstat.uz
5. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (jami foizda, 2010–2026). — andstat.uz
6. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (jami foizda, 2010–2026). — andstat.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Andijon viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha «yo'l xaritalari»da belgilangan



vazifalar ijrosi to'g'risida SQ-876-IV-son Qarori. 10.02.2024. — lex.uz/docs/-6814362

8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. «Tadbirkor ayollar qaysi hududda ko'proq

faoliyat yuritmoqda?» 2024. — stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/56765

9. World Bank. Gender Equality Analysis in Uzbekistan 2024. — Washington D.C.: World Bank, 2024. — worldbank.org



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz